

Guruhda ishlanganda

Kichik guruhlarda ishlanganda

Maqsadi:

O‘quvchi mayda guruhlarda ishlanganda, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

qo‘llash bosqichlari va ular bo‘yiga tavsiyalar:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Muammodan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kerakli asos yaratiladi. O‘quvchilar mazkur muammo haqida tushunchaga ega bo‘lishlari kerak.
3. Guruhlar belgilanadi. O‘quvchilar guruhlarga 5-7 kishidan bo‘linishlari kerak.
4. Aniq ko‘rsatmalar beriladi.
5. qo‘llab-quvvatlab va yo‘naltirib turiladi.
6. Muhokama qilinadi.

Ta’limning kichik guruhlarda ishlanganda usuli «ta’lim beruvchi-ta’lim oluvchi» dialogidan voz kechishni va «ta’lim beruvchi-guruuh-ta’lim oluvchi» ko‘rinishidagi uch tomonlama o‘zaro munosabatga o‘tishni nazarda tutadi. O‘quv guruhi, tarkibi bo‘yicha harakatchan kichik guruhlarga bo‘linadi va ularning har-biri o‘zicha o‘quv materialini o‘zlashtiradi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, shu tufayli siz bilan ta’lim oluvchilar o‘rtasida ancha mustahkam kontakt o‘rnataladi, shaxsiy va bir vaqtning o‘zida ta’lim jarayonida jamoaviy ruhiy holat kuchayadi.

Ta’lim oluvchilarning hamkorlikdagi harakati tashkillashadi, bu esa, o‘quv-bilish jarayonini faollashtirishga, ularda empatiyani, kommunikativlikni shakllantirishga ko‘maklashadi:

-vazifani hamkorlikda bajarish jarayonida, ta’lim oluvchilarda, o‘rtoqlari tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama qilishga motivatsiya paydo bo‘ladi;

-ta'lim oluvchilar bir-biriga savollar beradilar, shuning uchun, ular savollarni aniq shakllantirishni bilishlari zarur, javoblarni-argumentlashtirishni, tushunishga erishish uchun esa, ular bir birlarini diqqat bilan eshitishlari kerak;

-guruhlarda ishslash paytida, zarurati bo'lganda, ta'lim oluvchilar yordam berishlarini so'raydilar va boshqalarga yordam berishni o'rganadilar.

Har bir ta'lim oluvchining potensial imkoniyatlarini rivojlanishi va amalga oshirilishi ta'minlanadi:

-qobiliyatli va iqtidorli bolalar, ularni «maqtanganlik»larida ayblashlaridan cho'chimasdan o'z qobiliyatlarini ko'rsatishlari mumkin. Ular, guruhda nafaqat ta'lim beruvchi rolida bo'lishlari, balki ta'lim oluvchi rolida ham bo'lishlari mumkin va ta'lim beruvchi roolidagi o'z o'rtoqlari tomonidan baholanishi, raqib bo'lmasdan ulardan o'rganishi mumkin;

-o'rtacha qobiliyatga ega yoki xarakteri bo'yicha qo'rkoq bolalar o'z bilimlari va mahoratlarini namoyon qilish imkoniyatini oladilar. Kichik guruhlarda ishslash, ularni stress holatlardan xalos etadi, ya'ni noto'g'ri javob berganda butun jamoa oldida izza bo'lishdan qo'rqlikdan holi bo'ladi. Guruh a'zolari, javobni do'stona baholab, ularda o'ziga ishonch tuyg'usini uyg'otish imkonini beradilar. 4-5 kishidan iborat guruhda, qo'rkoq kishi, 25 kishilik guruh oldida o'zini tutishga nisbatan, o'zini ancha erkin his etadi;

Ta'limning ushbu shakli, ta'lim oluvchilar bilimini o'zaro hamkorlikda boyishini ta'minlaydi: faqatgina kooperatsiya va harakatlar (bilish) usullari bilan o'zaro almashish umumiyligi mahsulot olish - muammoni yechish imkonini beradi. Shuning uchun, guruhda ta'lim berishda, biz, jamoaviy muhokama qilishdan, o'zaro konsultatsiyalar berishda maksimal foydalanamiz.

Guruhlarda ishslash, atrofdagilarga bo'lgan munosabatni o'zgartiradi, «men va ular»dan «biz»ga o'tishni ta'minlaydi va o'zini guruhning bir bo'lagi sifatida his qilish imkonini beradi.

Kichik guruhlarda ishlaganda o'quvchilar quyidagilarga erishadilar:

-o'rganilayotgan materialni oldin o'tilgan material bilan bog'liqligini izlab topishni;

- birgalikda o‘tilayotgan o‘quv materialini muhokama qilishni;
- shaxsiy fikrlarini shakllantirish, ifoda etish va argumentlashni;
- bir-birlarini muvaffaqiyatlarini ko‘rsatishni;
- berilgan ishni ohiriga yetkazishga intilishda bir-birini qo‘llab-quvvatlashni;
- individual farqning mavjudligiga qaramasdan hamkorlik qilishni;
- ma’lum bir vazifani bajarish uchun tuzilgan jamoada yoki kichik guruhda mahsuldar ishlashni;
- kommunikatsiyaga va turli usullarda muloqat qilishga;
- kooperatsiyaga va harakatlar usullarini almash tirishga;
- bir-birini tushunishga;
- o‘zini va guruhni mehnati natijalari uchun ma’suliyatli bo‘lishga;

Guruhda ishlashni rejalashtirish paytidanimalarga e’tibor berish kerak?

· Vaqtga:

qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirish va rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun ixtiyor ingizda qancha vaqt borligini aniqlab oling.

Bu realmi?

· Mashg‘ulot modelini tanlashga:

Guruhlarda mashg‘ulotlarni qay tarzda o‘tkazishingizni aniqlab oling.

Eng yaxshi model - bu, o‘quv guruhning barchasiga vazifani tushuntirishdan boshlanadi, so‘ngra kichik guruhlarda ishlashdan va nihoyat, barcha o‘quv guruhi ishtirokida yakun yasashdan iborat.

· Ish joyini tanlashga va tayyorlashga:

Guruhlarda ishlash mos ravishdagi sharoitlarni talab qiladi. Bu ish qayerda bajarilishini aniqlab oling.

Shunday auditoriya tanlash lozimki, unda, bir-biriga xalaqit bermagan holda bir nechta guruh ishlash imkoniyatiga ega bo‘lsin. Guruhlarda ishni tashkil qilish uchun, kimyo va informatika kabinetlaridagi kabi, stol va stullar polga mahkamlab qo‘yilgan auditoriyalar to‘g‘ri kelmaydi.

Ish joyini o‘zini tayyorlab qo‘yish ham nazarda turishi lozim: stollar quyidagi tartibda joylashtiriladi:

- ta’lim oluvchilar auditoriyada erkin harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak;
- har bir guruh a’zolari, bir birini ko‘radigan va eshitadigan darajada joylashishlari kerak;
- zarur o‘quv qo‘llanmalariga barcha oson yetadigan bo‘lishi kerak;
- Vazifani tanlashga va uni ifodalashga:
 - qo‘yilgan ta’lim maqsadlariga mos keladigan vazifalarni tanlang;
 - biz, shuni ham yodda tutishimiz lozimki, o‘quv guruhlarining tarkibi quyidagi turli xususiyatlarga ega o‘quvchilardan iborat:
 - qobiliyati bo‘yicha;
 - bilimlari va mahoratining darajasi bo‘yicha;
 - psixologik xususiyatlari bo‘yicha: bir xillari faqat «qistroq» ostida o‘qiydilar, boshqalari mustaqil ishslashni afzal ko‘radilar, ayrimlari-faol, muloqat qilishga tayyor, ikkinchilari - passiv va o‘z «qobig‘i»ga o‘ralgan va h.k.;
 - o‘qish stili va bilim olish usuli bo‘yicha: bir xillari ma’ruzani eshitib, boshqalari esa - kitob bilan ishlab o‘quv matkrialini yaxshiroq o‘zlashtiradilar va h.k.;
- Buni e’tiborga olgan holda, vazifani shunday ifoda qilish kerakki, u, bir nechta qismlarni o‘z ichiga olsin. Bu esa, o‘z navbatida, har bir ta’lim oluvchiga o‘zining imkoniyatlari va qobiliyatlarini, bilimlari va mahoratlarini namoyon qilish, kuchli tomonlarini ko‘rsatish imkonini beradi.
- uni bajarishda guruhning barcha a’zolarini ishtirokini ta’minlaydi.
- O‘quv materiallarini tayyorlashga:
 - Agar, darsda turli qo‘llanmalar ishlatilsa, u, ancha qiziqarli va samarali bo‘ladi. Ularni tayyorlab qo‘ying va unumli foydalaning.
 - Shu bilan birga, guruhlar uchun yozma yo‘riqnomalar, ta’lim oluvchilar uchun esa
 - individual natijalar kartochkalarini tayyorlab qo‘ying.

· Yozma yo‘riqnomalar. Guruhning vazifasi va uni bajarish usullarini tushunishi aynan shunga bog‘liq. Shuni yodda tuting, faqat yo‘riqnomani tushunishgina guruhlar ichidagi ishni ta’minlaydi.

· O‘zingizni va ta’lim oluvchilarni guruhlarda ishlashga tayyorligiga hamda mahoratiga:

Ta’lim berishning guruhli shakli sharoitida ishlashga o‘zingizni tayyorgarligingizni ta’minlashingiz uchun, so‘zsiz, ko‘p vaqt sarflashingiiz kerak bo‘ladi: guruhlarni shakllantirish tamoyillari va guruhlarda ishlashni tashkil qilish bilan tanishishni talab qiladi. Bu birinchisi bo‘lsa, ikkinchidan, o‘zingizni imkoniyatlaringizni, kutayotgan natijalaringizni va tolerantlik chegaralaringizni aniq belgilab oling, faqat shundan keyingina guruhda ishlash shaklini joriy qilish to‘g‘risida bir qarorga keling.

Ta’lim oluvchilarni, ushbu shaklda faoliyat ko‘rsatishga sekin-asta tayyorlang, ularni guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiring. Bo‘larni tashqari, o‘quv guruhida do‘stona kayfiyat ruhi o‘rnatalishi lozim. Faqatgina shunda, ta’lim oluvchilar hamkorligida ishni samarali va ijodiy yondoshgan holda bajara oladilar.

Ta’lim oluvchilarni guruhlarga qay tarzda ajratish kerak?

Guruhlarda ishlashga tayyorgarlik ko‘rish paytida quyidagilarni o‘ylab qo‘yish zarur.

Birinchidan, guruhlar qanday tuzilganda yaxshi natija beradi?

· Belgilari bo‘yicha:

qay biri yaxshi:

- ixtiyoriy yoki noformal belgilari bo‘yicha tuzilgan aralash guruhli;

- yoki o‘quv yutuqlari darajasi bo‘yicha tuzilganimi, ya’ni: baravarlashtirish, qo‘llab - quvvatlash, rivojlantirish guruhlari;

- yoki psixologik jihatdan bir-biriga to‘g‘ri kelish darajasi bo‘yicha tuzilganimi;

- yoki biron - bir boshqa belgilari bo‘yicha tuzilganimi?

· Soni bo‘yicha:

- 2 dan to 5 kishigacha-uncha katta bo‘limgan vazifalarni bajarish uchun;

- 5 dan to 7 kishigacha-murakkab vazifalar uchun.

- Vaqt bo‘yicha:

Kichik guruqlar, belgilagan vazifani bajarish uchun qancha vaqt ajratilgan bo‘lsa, shuncha vaqt faoliyat ko‘rsatadi.

Albatta, agar muammoli tadqiqot qilish kerak bo‘lgan vazifa qo‘yilsa, uni bajarish uchun bir nechta o‘quv mashg‘uloti kerak bo‘ladi. Demak, guruqlar ham bir nechta darslarda faoliyat ko‘rsatib, vazifa bajarilgach, hisobot beradilar va guruqlar sifatida faoliyatini to‘xtatadi.

Ikkinchidan, ta’lim oluvchilarni guruhlarga kim ajratishini aniqlab oling.

Ta’lim oluvchilarni guruhlarga siz ajratasiz, lekin ular, bajarish uchun turli vazafalar berilgan paytda, o‘z qiziqishlariga qarab guruhlarni tanlashi him mumkin.

Guruhlarda ishlash qoidalari qanaqa?

Ta’lim oluvchilarni guruhlarda ishlashga o‘rgatish o‘ta muhimdir. Avvalambor:

- Ta’lim oluvchilar, guruh a’zolarining majburiyatlarini bilishlari va bajarishlari zarur:

- har bir a’zo o‘rtoqlarini fikrini eshitishi lozim.

- har bir a’zo ishda faol qatnishishi va hamkorlikda ishlishdan bo‘yin tortmasligi kerak;

- har bir a’zo, zarurati bo‘lganda yordam so‘rashi kerak;

- har bir a’zo, undan yordam so‘rashganda, boshqalarga o‘z yordamini berishi kerak;

- har bir a’zo guruh ishining natijalarini baholashda ishtirok etishi kerak;

- har bir a’zo o‘zining rolini yaxshi tushunishi va bajarishi kerak;

- har bir a’zo, konkret vazifani bajarishda, o‘zining konkret vazifasini bilishi kerak;

Ta’lim oluvchilar guruhlarda qandayrolni bajaradilar?

- Maslahatchi:

Guruhdagi ta’lim berish shaklidan foydalanilgan paytda, asosiy yadroslari turli predmetlar bo‘yicha maslahatchilardan (ularni assistentlar, laborantlar deb ham ataladi) tarkib topgan ta’lim oluvchilarning o‘quv faolligini oshishi sodir bo‘ladi.

O‘quv predmetlari bo‘yicha maslahatchilar - o‘z o‘rtoqlariga yordam berish ishtiyoyini bildiruvchi, predmeti yaxshi o‘zlashtirish va unga qiziquvchi ta’lim oluvchilardir.

Guruhlardagi mashg‘ulotlarni samarali o‘tkazish uchun, biz, maslahatchilar bilan muntazam ravishda shug‘ullanishimiz, ya’ni: ularning bilimlarini sifatini tekshirib turishimiz, uslubiy maslahatlar berishimiz kerak va h.k. Ularni tayyorlash uchun zarur bo‘lgan, ayrim qo‘srimcha vaqt harajatlari katta pedagogik yutuqlar bilan to‘ldiriladi.

· Yetakchi:

Guruhning vazifasi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri guruh yetakchisi yoki ta’lim oluvchining rahbarligi ostida bajariladi. Guruh a’zolaridan bittasini yetakchi (skiper, tashkilotchi) etib tayinlang. Uni, teng ravishda, o‘z fikrini aytmaydigan va past natijalar ko‘rsatgan yoki yaxshi o‘zlashtiradigan va faol ta’lim oluvchilarning ichidan tanlang.

O‘quv jamoasining yetakchisi guruh yetakchisi rolini bajarmasligi kerak.

Barcha o‘quvchilar, yetakchining rolini tushunishiga iqror bo‘ling. U, turli funksiyalarni bajarishi mumkin, lekin, doimo, barcha o‘quvchilarni isjni bajarishda qatnashishi ustidan nazorat qilishi kerak.

Yetakchilarga, ularning roli, nafaqat guruh nomidan yakun yasashdan iborat emasligini tushunishlariga yordam berish darkor: ularga, guruh vazifalarini bajarish usullari, guruhning har bir a’zosini individual ulushi to‘g‘risida gapirib berish kerak.

- Boshqa rollari: ma’ruzachi, bayonnomma tuzuvchi, yakun yasaydiganlar, vaqtini kuzatuvchilar va boshqalar.
- Rollarni belgilashda, ta’lim oluvchilarning kuchli va kuchsiz tomonlarini hisobga oling. Ishni shunday tashkil qilingki, har bir o‘quvchi guruh ishining natijalariga ta’sir ko‘rsata olsin. Shuning uchun, turli vazifalarni bajarish paytida ularning roli almashib tursin.